

## **№2-AMALIY ISHI**

**Mavzu: Windows NT tizimida tarmoqni tashkil etish ishlari.**

**Ishning maqsadi:** Talabalarga Windows NT tizimida tarmoqni tashkil etish ishlari bo'yicha Amaliy ishlashni o'rgatish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** kompyuterlar, tarmoq uchun kerakli qurilmalar va dasturiy vositalar.

**Qisqacha nazariy ma'lumot.** 1993 yildan boshlab Windows NT (WIN NT) Amaliyot tizimi va Windows NT Advanced Server ishga tushirildi.

Windows NT- Windows New Technology - Windows yangi texnologiyasi, Windows NT Advanced Server esa Windows NT ning server ko'rinishidagi kengaytirilgan variantidir.

Windows NT lahjaning paydo bo'lishi uni banklarda, sanoatda, tashkilotlarda va boshqa ko'p joylarda ishlatilishiga olib keldi. Hozirda Windows NT ning yangi lahjalari mavjud va u doimo rivojlanishda. Tabiiy, undan shaxsiy manfaatlar uchun ham foydalana boshlandi.

U quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga mujassamlashtirgan:

- ustivorlikka asoslangan ko'pmasalilik,
- o'zida mavjud kompyuter tarmog'ida ishlash,
- ma'lumotlarning himoyalanihi,
- ko'p oqimlilik,
- simmetrik multiprotsessorda ishlashni amalga oshirish,
- boshqa kompyuter dasturlarini qo'llash,
- boshqa Amaliyot tizimlariga mo'ljallangan ilova dasturlar bilan "do'stligi",
- turli fayl tizimlarini qo'llash,
- foydalanuvchi uchun tanish va qulay interfeys bor va u AQSHning Mudofaa vazirligi talablariga javob beradigan S2 muhofazalanish imkoniyatiga ega.

Hozirda Windows NT ning yangi lahjalari mavjud va u doimo rivojlanishda. Windows NTdan foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim. Har bir foydalanuvchi uchun umumiy resurslardan foydalanish darajasi belgilanishi mumkin. Ko'rsatilgan imkoniyatlarni izohlab o'taylik.

### **Topshiriqlar:**

1. Qanday tarmoq OS bilasiz?
2. Windows NT qanday Amaliyot tizimligini tushuntiring.
3. Windows NT Amaliyot tizimi qanday xususiyatlarga ega?
4. NetWare Amaliyot tizimi qanday xususiyatlarga ega?
5. LAN server Amaliyot tizimi qanday xususiyatlarga ega?